







Nogironligi bor ayollar uchun ayollar daftaridagi imtiyozlar



	Bu maqolada sen ayollar daftaridagi imtiyozlar haqida bilib olasan.
	**Ayollar daftari** – bu 30 yoshdan katta pulga muhtoj, kasb va bilim o‘rganishga qiziqadigan ayollarga yordam beradigan, nazorat qiladigan tizim.
	**Ayollar daftariga kirish uchun sen:** • Ishsiz bo‘lishing • doimiy daromadga ega bo‘lmasligiing • boquvchisiz bo‘lishing • ruhiy kasal bo‘lishing • birinchi, ikkinchi guruh nogironi bo‘lishing • sud qarori bilan yordamga muhtoj deb topilgan bo‘lishing • ajrashgan bo‘lishing • yolg‘iz ona bo‘lishing kerak.



	Qonunga ko‘ra sen: ● boquvching vafot etgan bo‘lsa ● nogironlik sababli ishlay olmasang boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olishing mumkin.
	Masalan: ● Sening otang, onang yoki turmush o‘rtog‘ing vafot etgan bo‘lsa sen boquvchingni yo‘qotgan bo‘lasan. ● Bu holatda sen, nogironlik pensiyasini ham boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olishing mumkin.
	Hozirgi kunda nogironlik pensiyasi – **800 000 (sakkiz yuz ming) so‘m.**
	**Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi:** ● oilada ishlamaydigan bitta inson uchun 608 000 (olti yuz sakkiz ming) so‘mdan ● oilada ishlamaydigan boshqa insonlar uchun 212 000 (ikki yuz o‘n ikki ming) so‘mdan beriladi.

	Misol uchun: Sen boquvchisiz nogironligi bor ayol bo‘lsang, sening 18 ga kirmagan ikkita farzanding bo‘lsa: • bitta farzanding uchun 608 000 (olti yuz sakkiz ming) so‘mdan • ikkinchi farzanding uchun 212 000 (ikki yuz o‘n ikki ming) so‘mdan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi beriladi.
	**Sen boquvchisi yo‘q nogironligi bor ayol** bo‘lsang: • davlatdan 3 ta farzanding uchun – 1 030 000 (bir million o‘ttiz ming) so‘m pensiya olasan.
	**Yolg‘iz ona –** bu ZAGSi yo‘q ayollar va bolasining tug‘ilganlik guvohnomasida yoki sud qarorida bola otasi ko‘rsatilmagan ayollar.
	Sen turmush o‘rtog‘ing bilan qonuniy ajrashgan bo‘lsang, bolangni yolg‘iz o‘zing boqayotgan bo‘lsang ayollar “Ayollar daftari”ga kiritilasan.

	Senda ruhiy kasallik bo‘lsa, “Ayollar daftari”ga kirish uchun: ● qonuniy vakiling bilan birga ariza va nogironlik hujjatingni xotin-qizlar raisiga berasan.
	Senda nogironlik bo‘lsa “Ayollar daftari”ga kirish uchun: ● **xotin-qizlar raisiga ariza** bilan murojaat qilasan.
	Mahalla xotin-qizlar raisi seni: ● oilaviy - moddiy holating ● ijtimoiy holating to‘g‘ri kelsa, ayollar daftariga kiritadi.
	Sening oilaviy sharoiting o‘rganilganda: ● oylik puling eng kam ish haqidan kam bo‘lmasa ● yashash sharoiting o‘rtacha bo‘lsa, arizang rad qilinadi.

	Senga arizang nima uchun rad qilingani haqida xotin-qizlar raisi tushuntiradi.
	“Ayollar daftari” ro‘yxatiga kirish bo‘yicha arizang sababsiz rad qilinsa, sen **xotin-qizlar raisini** sudga berishing mumkin.
	**Sen “Ayollar daftari”ga kirsang:** ● tadbirkorlik qilish uchun imtiyozli kredit olishing ● uyingni davlat tomonidan ta’mirlatishing ● bir yilda bir martalik pul yordami olishing mumkin.
	**Kredit** – bu bankdan qarzga olingan pulni qanchadir vaqt ichida foiz bilan qaytarish.
	Sen bir martalik pul yordami olishing uchun ariza berishing shart emas.

	2023-yil uchun ayollarga berilgan bir martalik yordam puli – 900 000 (to‘qqiz yuz ming) so‘m bo‘lgan.
	Uyingni **davlat tomonidan ta’mirlab berish** uchun sening uyingni holatini ishchi guruh va mutaxassislar o‘rganadi.
	Uyingni ta’mirlash uchun kerakli qurilish buyumlari **ro‘yxati tuziladi** va **“Ayollar daftari” jamg‘armasiga** beriladi.
	Sening uyingni ta’mirlash uchun “Ayollar daftari” **bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha** (10 200 000 - o‘n million ikki yuz ming so‘m) pul ajratadi.
	Hozirda **1** bazaviy hisoblash miqdori – **340 000 (uch yuz qirq ming) so‘m.**
	Uy-joyni ta’mirlatish uchun oilangdan bir kishida yoki senda nogironlik hujjati bo‘lishi kerak.

	Uy-joyini davlat tomonidan ta’mirlatish uchun oila **oylik daromadi past oila** deb belgilangan bo‘lishi kerak.
	Sen uyingni davlat tomonidan ta’mirlatishing uchun xotin-qizlar raisiga ariza bilan murojaat qilishing kerak.
	**Sen** tadbirkorlik qilishda bankdan pul olish uchun **mahalla xotin-qizlar raisi yordamchisiga ariza** bilan murojaat qilishing kerak.
	Xotin-qizlar raisi **yordamchisi,** hokim **yordamchisi** bilan birga tadbirkorlik uchun bankdan pul olish masalasini o‘rganib, **10 kunda senga ariza javobini** aytishi shart.
 **33.000.000**	Sen kasb o‘rganganligi haqidagi sertifikat bilan **33 (**o‘ttiz uch) **million so‘mgacha bankdan pul olishing** mumkin.
	Seni “Ayollar daftari”dan chiqaradigan holatlar: • senga har bir yordam turi bo‘yicha amaliy yordam berilganda

	• o‘zing daftardan chiqish uchun ariza yozganingda • “Ayollar daftari”ga noqonuniy kiritilganingda • boshqa davlatga yashash uchun chiqib ketganingda • sudlanib qamalganingda • inson vafot etganda yoki sud bedarak yo‘qolgan deb topganda.